

INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA TALABALARINI MUSTAQIL ISHLASHINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Akbarova Sayyora Shuxratovna

TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
E-mail: s.akbarova2704@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari talabalarning mustaqil ish jarayonini interfaol ta’lim metodlari asosida tashkil etish yo’llari, talabalarining didaktik kompetensiyasini shakllantirish modelining pedagogik shart-sharoitlari, o’quv loyiha usuli talabalarni didaktik kompetensiyasini shakllantirishdagi roli haqidagi ma’lumotlar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, mustaqil ta’lim, kompetensiya, o’quv loyiha metodi, interfaol ta’lim.

Аннотация: В статье автор рассматривает способы организации в вузах сегодня самостоятельной работы студентов на основе интерактивных методов обучения, педагогические условия модели формирования дидактической компетентности студентов, роль методов обучения в формировании дидактической компетентности студентов.

Ключевые слова: Образование, самостоятельное обучение, компетентность, метод проекта преподавания, интерактивное обучение.

Annotation: In the article, the author examines the methods of organizing independent work of students in universities today on the basis of interactive teaching methods, the pedagogical conditions of the model for the formation of students didactic competence, the role of teaching methods in the formation of students didactic competence.

Keywords: Education, self-study, competence, teaching project method, interactive learning.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida ta’lim sohasida bo’layotgan har bir o’zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobjiy ta’sir ko’rsatmoqda. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo’lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallahsga intilish – talaba faoliyatining ta’lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o’qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. An’anaviy darslar va o‘qituvchi rahbarligidagi mashg’ulotlar yetarli bo’lmay, talabalar mustaqil o’qish, izlanish va o’z bilimini oshirish orqali kasbiy tayyorgarlikni mukammallashtirishlari lozim. Ta’lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta’lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiyi mustaqil fikrashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Mustaqil ta’lim – bu faqatgina o’quv jarayoni emas, balki hayotiy muhim ko’nikmalarini shakllantirish imkoniyatidir.

Mustaqil ish deganda o’qituvchining bevosita yoki bilvosita rahbarligi ostida amalga oshiriladigan o’quv faoliyatining rejalashtirilgan turi tushuniladi, uning davomida talaba ta’limiy-o’quv faoliyatida zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish maqsadida har xil vazifalarni mustaqil ravishda bajaradi. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo’ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Ma’lumki, mustaqil ta’limni yo’lga qo’yishda nafaqat talablarni muayyan fan bo‘yicha bilim ko’nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo’lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma’lum ma’noda global professionallik masalasi ham o’z tasdig’ini topmog’i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabandan tezkor fikrashni va faol harakatni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar

asosida o'zining diqqatini muayyan obyektga qarata oladi [3].

Shuningdek, mustaqil ish turlarini turli jihatlar bo'yicha tasniflashda quyidagi yondashuvlar muhim xisoblanadi: didaktik yo'naliш; kognitiv faoliyatning tabiatи; muammolilik darajasi; kognitiv jarayonning rivojlanish bosqichlari; bajarish davomiyligi (muddati); ilmiy bilish usuli; o'qituvchini boshqarish darajasi; o'qituvchi va talabalarining kommunikativ o'zaro ta'sirining tabiatи; interfaol muhitni yaratilishi.

Talabalarining didaktik kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil ishning salohiyati bosqichma-bosqich: reproduktivdan produktivgacha, ishlab chiqaruvchidan rekonstruktiv-ijodiygacha bosqichma-bosqich qurilganida ahamiyatli bo'ladi.

Talabalarining didaktik kompetensiyasini shakllantirish modelining samarali ishlashi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq:

- 1) o'quv jarayoniga talabalarining didaktik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni faollashtirishning motivasion usullarini kiritish;
- 2) talabalarni kompetensiyaviy-yo'naltirilgan ko'p bosqichli o'quv vazifalarini bajarish orqali mustaqil ishlarga jalb qilish;
- 4) talabalarining didaktik kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil ishlari natijalarini nazorat qilishni amalga oshirish [1].

Mustaqil ishning mazmuni va tashkil etilishi zamonaviy o'qitish tizimining eng jiddiy muammolaridan biridir. Mustaqil ish, bu o'quv jarayonida o'zini o'zi boshqarishning trayektoriyalarini shakllantirishga hissa qo'shadi va sezgi, tasavvur va zukkolikni talab qiladigan aks ettiruvchi fikrlashni shakllantirishga imkon beradi.

Mustaqil ish jarayoni – talabalarining o'quv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan jarayondir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mustaqil ish jarayonida ta'lim samaradorligini oshirish, o'qitishning interfaoligini ta'minlash, talabalarni motivasiya qilish maqsadida dasturiy didaktik majmuani yaratishda:

- o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos tomonlarini inobatga olish;
- ko'rgazmalilikni ma'lum bir tartibda bajarish;
- fan o'quv muloqoti asoslarini tashkil etish;
- muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro bevosita aloqa bog'liqlikni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdир.

Talabalarining didaktik kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil faoliyatining turli xil sharoitlarida o'zaro ta'siriga asoslangan interfaol o'qitish usullarini tasniflashga ajratamiz: o'quv faoliyatida matn bilan ishslashning interfaol usullari ("Reycher texnologiyasi" "TABLE" metodi, qadam texnologiyasi, munozaralar, bahslar; harakat orqali kasbiy faoliyatda (ishbilarmon o'yinlar, treninglar, keys-metod, vaziyatni tahlil qilish, "Sindikat" metodi, "Besh qadam", "Integrasion muhit" loyiha metodi, va h.k.).

O'quv loyiha usuli talabalarni didaktik kompetensiyani shakllantirishda yaxshi samara beradi. O'quv loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

O'quv loyihalari usuli «o'qitish usuli» didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandı. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida «erkin tarbiya» g'oyalari yuzaga keldi.

Amerikalik pedagoglar V. Kilpatrick, Ye. Kollings va Ye. Parxerstning ishlarida rivojlantirildi, ular tahsil oluvchilarining nafaqat faol o'rganish faoliyati, balki birgalikkagi mehnat, hamkorlik asosidagi faoliyatini tashkil eta boshladilar.

“Loyiha” atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o’tgan bo’lib, «Loyiha (lotincha-projectus, dan tarjimada oldinga tashlangan) – aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g’oyasini anglatadi.

Ta’lim ma’nosidagi loyihalashtirish o’qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo’yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo’lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o’quv faoliyatidir [2].

Loyihaviy ta’limning muhim belgilari:

- muammoga yo’naltirilgan o’quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o’quv muhitini yaratadi;
- talabalarga ularni qiziqtirgan muammoni tadqiq qilish va uni hal etishda yo’naltirish va yordam berishda o’qituvchi o’rnini belgilovchi o’quv muhitini yaratadi;
- fan bilimlarini mustahkamlashga va ularni rivojlantirshga yordam beruvchi o’quv muhitini yaratadi;
- talabalarga mustaqil harakat qilish, (amaliyotga yo’naltirilgan) aniq yakuniy natija olishni ta’minlovchi o’quv muhitini yaratadi;
- haqiqiy hayot bilan ta’limning mustahkam aloqasini o’rnatadi.

Shuning uchun o’quv loyiha metodini qo’llash orqali talabalarining mustaqil ta’lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg’ulotlarida talabalarni o’qitish bilan bir qatorda ularni ko’proq mustaqil ishslashga o’rgatish, bilim olish yo’llarini ko’rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo’llanma berish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda o’tilayotgan har bir fanning xususiyatlari va har bir talabaning o’zlashtirish darajasi va qobiliyati hisobga olinadi. Zamonaviy ta’limning maqsadi talabalarni mustaqil ish jarayonini interfaol ta’lim metodlari asosida tashkil etish orqali ta’lim natijasi sifatida talabani kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim bo’lgan bilim, ko’nikma, malakalarini va mustaqil ishni tashkil etishga oid shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Texnologik taraqqiyot, mehnat bozorining o’zgarishi va ta’limning individuallashtirilishi sababli har bir talaba mustaqil ta’lim olish, tahliliy fikrlash va o’z kasbiy malakalarini oshirish ustida ishlashi kerak. Bu esa nafaqat ularning bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularni jamiyatda muvaffaqiyatli shaxsga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бережнова Е.В. Основы учебно-исследовательской деятельности студентов: учебник. Среднее профессиональное образование. Педагогическое образование. – М., Академия, – 2010. – S.124 .
2. Musakhanova G. Педагогика: таълим жараёнини ташкил қилиш ва унда мустақил таълимнинг ўрни //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 5.
3. Akbarova S. Ta’limni raqamlashtirish davrida talabalarni mustaqil ta’limini tashkil qilish //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
4. Мусаханова Г. М. Мустақил таълим жараённида таълим олувчилик ташкилотчилик қобилиятларини инновацион технологиялар асосида ривожлантириш //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
5. Kayumova M. Oliy ta’lim muassasalarida blended learning va flipped classroom metodlarini joriy qilish samaradorligi //Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali. – 2024.
6. Shavkat M. Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni individuallashtirishni ta’minlovchi ta’lim trayektoriyalari //Research and Publications. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – S. 242-247.
7. Xodjiyeva I. A. Podobryavane na inovativni proyektno-bazirani metodi za prepodavane na marketing v sosialnite medii (smm) v digitalnata ikonomika // na primera na ikonomicheskite universiteti) ISJ Theoretical & Applied Science. – 2022. – Т. 2. – S. 106.